

SURXONDARYO VOHASIDA MILLIY GILAMDO‘ZLIK AN‘ANALARINING SHAKLLANISHI VA HUDUDIIY O‘ZIGA XOSLIKLARI

Mallayev Dilmurot Tursunmurodovich

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o‘qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0004-1993-070X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Maqolada Surxondaryo vohasi gilamdo‘zlik san‘ati va uning etnohududiy xususiyatlari yoritilgan. Unda gilamlarning naqsh, rang va texnik jihatlari hamda hunarmandlar ijodiy an‘analari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Gilamchilikda to‘qima, tikma hamda bosma xillari, anilin bo‘yoqlar, o‘rmak dastgohi, Oq-enli gilam

Abstract: The article discusses the art of carpet weaving in the Surkhandarya oasis and its ethno-territorial characteristics. It analyzes the patterns, colors and technical aspects of carpets, as well as the creative traditions of craftsmen.

Keywords: Types of weaving, embroidery and printing in carpet weaving, aniline dyes, loom, Oq-enli carpet

Аннотация: В статье рассматривается искусство ковроткачества Сурхандарьинского оазиса и его этнотерриториальные особенности. Анализируются узоры, колорит и технические особенности ковров, а также творческие традиции мастеров.

Ключевые слова: Виды ткачества, вышивка и набивка в ковроткачестве, анилиновые красители, ткацкий станок, ковёр «Ок-энли».

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION). Gilamlar insoniyat madaniyati tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qadim zamonlardan beri inson turmushining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Ular xona ichida bezak vazifasini bajarish, issiqlikni saqlash va tovushni kamaytirish uchun xizmat qilgan. Aksariyat hollarda gilamlar polga yoki bo‘yra ustiga to‘shalgan, devorga osilgan yoki o‘tov ichiga o‘raladigan bezak sifatida foydalanilgan.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ) / DISCUSSION). Gilamdo‘zlik ayollar hunari

sifatida qadimdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu ish nafaqat benazir mahorat, balki sabr-toqat va zavqni ham talab etgan. Gilam to‘qish ayollar olamiga xos an‘ana sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Tajribali gilamdo‘z bo‘lish oson emas edi. Qiz bolalar gilam to‘qish sirlarini yoshlikdan, 7–9 yoshlaridayoq charxda ip yigirishni o‘rganish orqali boshlaganlar. 11–14 yoshga yetganda ular hunarmandga shogird bo‘lib, gilam to‘qish jarayonida ishtirok eta boshlaganlar, ammo bu yoshda bo‘yoqlash ishlariga qo‘shilmaganlar[1].



20–25 yoshga kelganda ular gilam to‘qishni puxta o‘rganib, mustaqil ishlay oladigan darajaga yetganlar. 30–35 yoshlarda esa haqiqiy tajribali ustalarga aylanib, turli uslub va naqshlarda gilam to‘qish olganlar. Shu tarzda gilamdo‘zlik nafaqat mehnat, balki ayollarning ijodiy dunyosi, go‘zallikka intilishi va madaniy merosini ifoda etgan.

Gilamlar turli usullarda to‘qiladi va ularning to‘qima, tikma hamda bosma xillari mavjud[2].

To‘qima gilamlar — guli to‘qish jarayonida shakllanadigan gilam turi bo‘lib, ular O‘zbekistonda asosan patli (yo‘l-yo‘l, yumshoq tukli) va patsiz, ya’ni palos shaklida to‘qiladi.

Tikma gilamlar — tayyor mato yoki asosga guli keyinchalik tikkandan keyin hosil bo‘ladigan gilam turi hisoblanadi.

Bosma gilamlar esa guli maxsus bo‘yoqlar yordamida bosib ishlanadigan, sanoat usulida tayyorlanadigan gilamlardir.

Gilamlar odatda ular to‘qilgan hudud yoki gilamni yaratgan qabila nomi bilan ataladi. Masalan, Muzrabot tumani Xo‘shmon qishlog‘ida yashovchi turkman hunarmandlari tomonidan to‘qilgan gilamlar **Ersari gilamlari** nomi bilan mashhur. Turkman gilamlariga xos jihat shundaki, ular asosan **geometrik naqshlar** bilan bezatiladi. Har bir naqsh, har bir tamg‘a o‘ziga xos **ramziy ma’noni** ifodalaydi va qabilaning madaniy, ma’naviy qarashlari hamda dunyoqarashini aks ettiradi.

XIX asr boshlarida gilamlar yerga yaqin o‘rnatilgan, pastak va sodda tuzilgan to‘quv dastgohlarida to‘qilgan. Ushbu an’anaviy dastgohlar “o‘rmak” deb atalgan bo‘lib, ular asosan ayollarning qulay ishlashi uchun deyarli yer sathiga yaqin joylashtirilgan.



Vaqt o‘tishi bilan gilam to‘qish texnologiyalari takomillashdi va yanada zamonaviy, qulay hamda kengroq “g‘altakli” dastgohlar ishlab chiqarila boshlandi. Bunday dastgohlarda ikki yoki uch nafar ayol yonmayon o‘tirib, bir vaqtning o‘zida gilam to‘qishi

mumkin bo‘lgan. Bu esa mehnat unumdorligini oshirgan, naqshlarning murakkabligini va to‘qish sifatini yanada yaxshilagan.

Qo‘lda gilam to‘qish juda mehnattalab jarayon hisoblanadi. Masalan, tajribali gilamdo‘z bir kvadrat metr patli gilam to‘qish uchun taxminan 20–25 kun vaqt sarflaydi. Shuning uchun ham qo‘lda to‘qilgan gilamlar hunarmandchilik mahsulotlari orasida eng qimmatbaholaridan hisoblanadi.

Gilamlar patlarining uzunligiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

- Qisqa patli gilamlar (3–7 mm) — silliqroq va zichroq bo‘ladi;
- Uzun patli gilamlar (8–17 mm) — yumshoqroq va hajmliroq ko‘rinishga ega.

Surxon vohasi gilamdo‘zlari asosan qo‘y junidan foydalanishgan.

Surxondaryoning tog‘li hududlarida keng tarqalgan ro‘yan (marena) o‘simligidan qadimdan gilamchilikda qo‘llaniladigan qizil-sarg‘ish rang olinadi. Shuningdek, isparak o‘simligidan — yorqin sariq, yantoqdan — och jigarrang, o‘smadan — yashil, anor po‘stlog‘idan esa qora va qaxrabo tuslar tayyorlangan.

Bu o‘simlik bo‘yoqlari gilamchilikda ranglarning tabiiy, mustahkam va o‘ziga xos jiloga ega bo‘lishini ta’minlagan hamda vohaning rang ohanglariga xos milliy an’analarni shakllantirgan.

XIX asrning oxirigacha gilam to‘qish jarayonida asosan o‘simliklardan olinadigan **tabiiy bo‘yoqlar** keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular gilam ranglarining tabiiy jilosi va mustahkamligini ta’minlagan. Sovet davri boshlanishi bilan bo‘yash texnologiyalarida sezilarli o‘zgarish yuz berdi: **anilin bo‘yoqlari** ishlab chiqarishga joriy qilinib, amaliyotda tobora ko‘proq qo‘llanila boshlandi. Bu jarayon ranglarning xilma-xilligini oshirgan bo‘lsa-da, tabiiy bo‘yoqlarga xos an’anaviy ohanglar asta-sekinlik bilan qisqara boshladi[3].

Patli gilam to‘qish ancha murakkab jarayon bo‘lib, unda asos iplardan tashqari “nax” deb atalgan qo‘shimcha ip ham ishlatiladi. Gilam naqshlari turli rangli iplarni aniq hisob bilan, namunaga qarab terish asosida yaratiladi. Har bir qator tugun bog‘langach, arqoq iplari o‘tkaziladi va taroq yordamida iplar zich qilib

bosiladi.

Boysun, Sherobod, Termiz, Jarqo'rg'on va Sho'rchi tumanlarida gilamchilik an'analari uzluksiz davom etib kelmoqda. Ushbu hududlarda qadimiy kasb ustoz-shogird maktabi orqali avloddan-avlodga o'tib, hunarmandchilikning o'ziga xos tajribasi va sir-asrorlari saqlab qolingan.

Surxondaryo vohasida ayniqsa patsiz gilamchilik keng tarqalgan bo'lib, u milliy bezak san'atining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur an'ana voha hunarmandlarining mahorati, estetik qarashlari va madaniy merosga sadoqatini yaqqol namoyon etadi.

Boysun tumanida kashtali gilamchilik rivojlangan bo'lib, bu turdagi gilamlar ham to'qiladi, ham tikiladi. Natijada bunday gilamlar badiiy ifoda va bezak jihatidan o'ziga xos, murakkab tuzilishga ega. Gilamchilik jarayoni nafaqat maishiy ehtiyojni qondiruvchi hunar, balki **xalqning dunyoqarashi, didi va ma'naviyati ifodasi** sifatida namoyon bo'ladi. Hunarmand ayollar o'z atrofidagi tabiatdan ilhom olib, uning go'zalligini gilam naqshlariga singdiradilar. Tog'li hududlarda yashovchilar o'z atrofidagi flora va faunani, cho'l hududidagilar esa sahro hayotining unsurlarini naqshlar orqali ifodalaganlar.

Qiziriq va Sherobod tumanining tog'li hududlarida asosan atlas va shoyi gilamlar to'qiladi. Bu hududlarda to'qilgan gilamlar nozik tuzilishi, yorqin ranglari va nafis bezaklari bilan ajralib turadi.

Gilam to'qish jarayonida **an'anaviy o'rmak dastgohlaridan** foydalanish saqlanib qolayotgani, bu esa xalq hunarmandchiligida qadimiy texnologiyalar uzviy ravishda qo'llanilayotganini ko'rsatadi[4].

Surxon vohasida to'qiladigan, boshqa hududlarda uchramaydigan Oq-enli gilam texnikasining o'ziga xos xususiyati to'qish (asosan, gajari va terma texnikasi yordamida to'qilgan chiziqlar) va qo'l kashtachiligi uyg'unligidadir. Kashtado'zlik asosan och yoki sarg'ish chiziqlarga, to'qilgan chiziqlar esa to'q jigarrang yoki to'q qizil ranglarga qo'llanilgan[5]. Tuksiz gilamlarning kengligini aniqlashda Boysunliklar "en" (keng) dan foydalanganlar. Bitta en bitta to'qilgan

gilamning kengligiga teng bo'lgan, bundan gilamning nomi kelib chiqqan[6].

Aralash texnikali gilamlarning bezaklari asosan geometrik, zoomorf va ba'zida o'simliklarga bo'linadi. 20-asr o'rtalarigacha ko'chmanchilarga yaqin bo'lgan dasht landshaftining o'simlik va hayvonot dunyosi oq-enli gilamlar bezaklarida o'z aksini topgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida yosh hunarmandlarning faoliyati tobora ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Ulardan Azizova Maftuna Rahmatullo qizi 80 nafar shogirdi bor. Shulardan 20 tasi o'z ish faoliyatini boshlab yuborishgan. Yosh hunarmand Qirg'iziston va Tojikistonda o'tkazilgan bir qator xalqaro festivallarda ishtirok etib, o'z mahoratini namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, Boysunda gilamlarga tushiriladigan naqshlarning **62 ta turi** aniqlanganini inobatga olsak, uning gilamchilik sohasida **chinakam professional darajaga yetganligi** yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa yosh ustaning nafaqat an'anaviy naqshlarni bilishi, balki ularni zamonaviy talablarga moslashtira olishi, hunarga chuqur yondashishi va ijodiy izlanishlari bilan izohlanadi[7]. Maftuna Azizovaning xizmatlari davlat tomonidan e'tirof etilib, 2018 yilda Prezident Farmoniga ko'ra, «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi[8]. 2024- yil may oyida bo'lib o'tgan ushbu xalqaro Boysun festivalida Maftuna Azizova boshchiligidagi hunarmandlar viloyat hokimining homiyligida bo'yi 28- 29 metr eni 5 metrli gilam to'qishdi. Katta gilamni to'qishga 80dan ortiq hunarmandlar jalb etilgan.

So'nggi davrda voha hududiga xos bo'lgan qadimiy odatlardan biri — chevarlarni rozi qilish marosimi gilamchilik an'analari muhim o'rin tutadi. Gilam to'qish jarayonida chevar albatta uyga taklif etilgan va uni rozi qilish maqsadida "bosh-oyoq sarmo" berish odat bo'lgan.



XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bu an'ana yana-da takomillashgan bo'lib, vohada gilam to'qigan ayolni rozi qilish uchun odatda quyidagilar taqdim etilgan: mahsi-kalish, ko'ylak-ro'mol, 3 metr baxmal mato.

Bu sovg'alar nafaqat ustaga hurmat ifodasi, balki vohada qadimdan shakllangan mehnat qadrlanishi, ustozlarga ehtirom va milliy qadriyatlarni asrash tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida qaralgan. Sherobod tumanining

ba'zi bir qishloqlarida gilam to'qitgan xonadon egasi (erkak kishi tomonidan) tomonidan chevarlarga atab hurmat va ehtirom sifatida qo'y so'yib mehmon qilinadi. Hozirda vohada har bir to'qilgan gilam to'quvchi-chevarga 700-800 ming so'm pul beriladi. Chunki vohada bitta katta gilamni to'qish uchun 20 kundan 1 oyga qadar vaqt kerak bo'lgan.

Gilamchilik — xalqning milliy o'zligini, estetik didini va ma'naviy qadriyatlarini ifoda etuvchi bebaho madaniy meros hisoblanadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Gilam to'qish jarayonida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar, ramziy naqshlar va rang uyg'unligi xalq tafakkuri, hayot falsafasi hamda tabiat bilan uyg'unlik g'oyalarini o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, ayollar ishtirokidagi gilamchilik an'analari nafaqat hunar, balki jamiyatda mehr-oqibat, birdamlik va ma'naviy totuvlikni mustahkamlovchi omil sifatida ham ahamiyatlidir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Dala yozuvi. Boysun tumani To'da qishlog'i.
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. — Т.: Меҳнат, 1991. — Б. 335.
3. Давлатова С.Т. ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари ан'анавий хунармандчилиги тарихий жараёнлари контекстида (XIX асрнинг иккинчи ярми -XXI аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фан доктори (ДСс) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. -Тошкент, 2019.-Б.309.
4. Хакимов А., Гюль Э. Байсун. Атлас художественных ремесел. Ташкент, 2006. С. 153.
5. S.Tursunov, T.Pardayev. O'zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi. — Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2012. — B. 102.
6. Dala yozuvlari . Boysun tumani Yuqori Machay mahallasi.
7. Dala yozuvi. Boysun tumani Obi qishlog'i.
8. Сурхон тонги» газетаси, 2018 йил 28 июль.